Xalilova Moxigul Baron qizi

"Termiz" davlat muzey - qo'riqxonasi Etnografiya bo'lim mudiri

O‘TMISHNI YORITUVCHI CHIROQLAR

Annotatsiya: *Ushbu maqolada olis o'tmishdan bugungi kunga qadar saqlanib qolgan Markaziy Osiyo chiroq turlari, ularning paydo bo'lishi xaqida so'z boradi. Qadimgi Baqtriya xo‘jalik turmush-tarzida muhim ahamiyatga ega chiroqlar haqida muxtasar so'z yuritiladi.*

Abstract: *This article talks about the types of Central Asian lamps that have survived from the distant past to the present day, and their emergence. A brief mention is made of lamps, which are important in the ancient Bactrian economy.*

Kalit so’zlar: *Kushonlar imperiyasi, Mirzaqultepa, Eski Termiz, Qoratepa, Fayoztepa Chiroqlar, sak-massagetlar.*

Keywords: *Kushan Empire, Mirzaqultepa, Old Termiz, Karatepa, Fayoztepa Lamps, sak-massagets.*

Ona zaminimizning bepoyon sarhadlari, betakror tabiati, serhosil va unumdor dalalari qadim-qadimdan o’zga davlatlar e’tiborini tortib kelgan. Qadimgi dunyoning qudratli davlatlari va sarkardalari bu hududlarni ishg’ol etish maqsadida tinimsiz xujumlar uyushtirgan. Ularning xujumini bartaraf etish uchun me’mor ustalar tomonidan mudofaa devorlari mustahkam bo’lgan qal’alar bunyod etilgan va albatta tungi paytlarda bu qal’alar mash’alalar yordamida yoritilgan hamda maxsus soqchilar guruhi tomonidan aholi xavfsizligi ta’minlangan.

Shuningdek, tun zulmatida Vatan sarhadlarini qo’riqlash uchun maxsus mayoq inshootlari qurilib, ushbu mayoqlar orqali soqchilar uzoq uzoq masofalardan turib bir-birlariga signal uzatib turgan.

Ichki inshootlar uchun yorug'lik manbai esa chiroqlar bo'lgan. Chiroqlar yordamida nafaqat qal'alarning ichki xujralari, balki qadimgi baqtriya me'morchiligida uchraydigan yerto'la va yarim yerto'la shaklida hujralar ham yoritilgan. Bu holatni biz kushonlar davrida bunyod etilgan Fayoztepa, ayniqsa Qoratepa buddaviylik majmuasida uchratishimiz mumkin. Hatto kunduzgi payt ham kun yorug'i tushmaydigan ushbu hujralar albatta chiroqlar yordamida yoritilgan.

Chiroq xonani, joyni yoritish uchun xizmat qiladigan uy-ro'zg'or buyumi hisoblanadi. Insoniyatning ibtidoiy davrlarida chiroqlar bo'lmagan, ularning vazifasini gulxanlar va mash'alalar bajargan. Arxeologik tadqiqotlar natijasida topilgan eng qadimiy chiroqlar miloddan avvalgi 6 asrga oid bo'lib, sak-massaget ko'chmanchi qabilalarning qabr qo'rg'onlaridan topilgan. Ushbu bronza chiroqlarning asosi konussimon, balandligi 20-30 sm, ustki qismi dumaloq yoki to'g'ri- to'rtburchak kosacha shaklida bo'lgan. Uning markazida 1 yoki 2 ta plik o'rnatilgan mo'rilari bo'lgan. Bronza kosachalarning konussimon asos qismi judayam nafis va yupqa qilib yasalgan. Kosachalarning chekkasida zoomorf (hayvonlar) shaklidagi haykalchalar tasvirlangan. Ba'zi chiroqlarning kosachasiga jangchi tasviri tushirilgan.

Metaldan yasalgan chiroqlar asosan shaharlarda badavlat odamlarning xonadonlaridan, sopol chiroqlar esa oddiy shaharlik va qishloq xonadonlaridan topilgan. Dastlabki sopol chiroqlar tarkibida shaffof minerallari bo'lgan kul rang loydan yasalgan. Natijada, ular metal chiroqlarga o'xshab yaltirab turgan.

Mil. av.1-milodiy 3 asrlarda Surxondaryo viloyati hududi Kushonlar saltanati tasarrufida bo'lgan. Bu davrda yalpoq idishli sopol qorachiroqlar keng tarqalgan. Mirzaqultepa, Eski Termiz, Zartepa kabi ushbu davrga oid qishloq va shaharlardan, Qoratepa va Fayoztepa kabi buddaviylik ibodatxonalaridan yuzlab sopol qorachiroqlar topilgan. Ibodatxonalardagi kelyalarda chiroqlar uchun maxsus arkasimon tuynuklar qurilgan. Yosh rohiblar qorachiroq yog'dusida buddaviylikka

oid adabiyotlarni o’qib o’rgangan bo’lsalar, yetuk budda avliyolari ushbu dinga oid asarlar yozganlar.

Qadimshunoslar tomonidan o’rganilgan Sherobod tumanida joylashgan Xosiyattepa yodgorligidan V-VI asrlarga oid ko’plab qorachiroqlar topilgan. Ularning shakli kushon davri chiroqlaridan biroz farq qiladi. Chiroqlarning yog’doni chuqur, pilik o’rni ancha nafis ishlangan. Chiroqlarning tashqi tomoni jigarrang angoblar bilan bezatilgan.

Eski Termiz hududidan ham o’rta asrlarga oid ko’plab chiroqlar topilgan. Dastlab, ular biroz sodda va oddiy qilib yasalgan. Sirkor idishlarning paydo bo’lishi bilan chiroqlar ham sir bilan qoplana boshladi. Ular asosan kulolchilik xumdonlarida pishirilgan. Sopol chiroqlar metal chiroqlarga taqlidan ishlab chiqarilgan. Chiroqlarning chiroyli ko’rinishi, narxining xamyonbobligi tufayli aholi tomonidan ko’plab xarid qilingan. Shuning uchun ham ular arxeologik qazishmalar paytida ko’plab topiladi. Chiroqlarning shakl va bezaklari xilma-xil. Yog’donlari silindirsimon, tepa qismida yumaloq yog’ quygich va atrofi qirrali bezaklar bilan qoplangan. Burunchasi cho’zilgan, to’ppa-to’g’ri holatda yasalgan. Burunchasiga simmetrik ravishda yog’doniga xalqasimon dastacha va uning ustida odatda bargsimon uchi bo’lgan. Chiroqning shu qismi qolipda o’simliksimon, geometrik, hayvon yoki parrandalar tasvirlari bilan bezatilgan. Chiroqlarga zangori, yashil va jigarrang sirlar bilan jilo berilgan. Chiroqlarning o’rtacha hajmi: balandligi 4-4.5 sm; diametri – 5- 6 sm; buruncha uzunligi – 9-9,5 sm.ni tashkil etadi.

“Termiz” davlat muzey qo‘riqxonasi fondi va ko’rgazma zallarida turli davrlarga oid ko’plab chiroqlar mavjud bo’lib, ular asosan rivojlangan va sungi o’rta asrlarga oid metal va sopol chiroqlardir. Mazkur chiroqlar muzeyga tashrif buyurgan tomoshabinlarga namoyish etilmoqda.